

SANOAT KORXONALARIDA MOLİYAVIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH: STATISTIK TAHLIL ASOSIDA

Obidova Intizor Begaliyevna

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, mustaqil izlanuvchi Email:
intizorobidova1984@gmail.com Tel: +998 99 833 47 38 ORCID: 0009-0007-0915-4363 Toshkent,
O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini statistik tahlil asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligi ularning moliyaviy samaradorlik darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu ko'rsatkichni aniq va ishonchli baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda moliyaviy samaradorlikni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilib, iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullarni uyg'unlashtirgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi.

Statistik tahlil jarayonida vaqt qatorlari tahlili, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, indeks usullari hamda korrelyatsiya tahlilidan foydalanildi. Shuningdek, moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ekonometrik model ishlab chiqildi. Ekonometrik tahlil natijalari investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligi moliyaviy samaradorlikka ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish xarajatlari esa salbiy ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini yanada chuqur va ishonchli baholash hamda amaliy qarorlar qabul qilishda samarali foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari; moliyaviy samaradorlik; baholash metodologiyasi; statistik tahlil; ekonometrik model; investitsiya faolligi; mehnat unumdorligi.

ENHANCING THE METHODOLOGY FOR FINANCIAL EFFICIENCY ASSESSMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM STATISTICAL ANALYSIS

Abstract: This article investigates the issues of improving the methodology for assessing the financial efficiency of industrial enterprises based on statistical analysis. In a market economy, the sustainable development, competitiveness, and investment attractiveness of industrial enterprises are directly linked to their level of financial efficiency, making its accurate and reliable assessment particularly important. The study develops a system of key indicators characterizing financial efficiency and applies a comprehensive methodological approach that integrates economic-statistical and econometric methods.

The statistical analysis employs time series analysis, relative and average indicators, index methods, and correlation analysis. In addition, an econometric model is constructed to identify the factors affecting financial efficiency. The results of the econometric analysis indicate that investment volume and labor productivity have a positive and statistically significant impact on financial efficiency, while production costs exert a negative effect. The findings demonstrate that the proposed methodological approach enables a

more comprehensive and reliable assessment of the financial efficiency of industrial enterprises and can be effectively used in evidence-based managerial decision-making, industrial policy improvement, and enhancing financial sustainability.

Keywords: *industrial enterprises; financial efficiency; assessment methodology; statistical analysis; econometric modeling; investment activity; labor productivity.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida sanoat tarmogʻi milliy iqtisodiyotning yetakchi boʻgʻini sifatida mamlakatning iqtisodiy oʻsishini taʼminlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarining samarali faoliyati yalpi ichki mahsulot hajmining oshishi, bandlik darajasining yaxshilanishi hamda eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini baholash va uni oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Moliyaviy samaradorlik korxonaning moliyaviy resurslardan qay darajada oqilona foydalanayotganini, ishlab chiqarish faoliyatining foydalilik darajasini hamda kapitalning rentabelligini aks ettiruvchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ushbu koʻrsatkichni toʻgʻri baholash korxonalar faoliyatida strategik qarorlar qabul qilish, investitsiya siyosatini belgilash va moliyaviy barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyotda sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini baholashda qoʻllanilayotgan yondashuvlar koʻpincha alohida koʻrsatkichlar bilan cheklanib qolmoqda hamda ularning oʻzaro bogʻliqligi yetarli darajada inobatga olinmayapti.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini statistik baholash jarayonida mavjud maʼlumotlarning toʻliqligi va sifati, hududlar kesimidagi tafovutlar, vaqt boʻyicha oʻzgarishlar kabi omillarni hisobga olish zarurati mavjud. Statistik va ekonometrik usullarni kompleks qoʻllash orqali ushbu muammolarni bartaraf etish, moliyaviy samaradorlikka taʼsir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning miqdoriy bahosini berish imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini statistik tahlil asosida takomillashtirish, mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish hamda iqtisodiy-statistik va ekonometrik modellar yordamida moliyaviy samaradorlikka taʼsir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarini faoliyatini tahlil qilish, ularning moliyaviy holatini baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash masalalari iqtisodiy fanlarda uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlar asosan moliyaviy tahlil nazariyasi, statistik baholash usullari hamda ekonometrik modellashtirish yondashuvlariga tayanadi [1], [2].

Moliyaviy samaradorlik tushunchasining nazariy asoslari, avvalo, korporativ moliya maktabi vakillari tomonidan shakllantirilgan. Xususan, Eugene F. Brigham va Joel F. Houston oʻz tadqiqotlarida moliyaviy samaradorlikni korxonaning foyda olish qobiliyati hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi orqali baholash zarurligini asoslab

bergan. Ular aktivlar rentabelligi (ROA) va o'z kapitali rentabelligini (ROE) moliyaviy samaradorlikni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etadi [1].

Moliyaviy samaradorlikni baholashda investitsion qarorlar va kapital qiymatini hisobga olish masalalari Aswath Damodaran tadqiqotlarida keng yoritilgan. Uning ishlarida moliyaviy samaradorlik korxonaning bozor qiymatini oshirish bilan chambarchas bog'liq ekanligi, moliyaviy ko'rsatkichlar esa strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi [2].

Statistik va ekonometrik yondashuvlarning moliyaviy samaradorlikni baholashdagi o'rni Damodar N. Gujarati hamda Jeffrey M. Wooldridge tadqiqotlarida chuqur asoslab berilgan. Ularning ilmiy ishlarida regressiya va korrelyatsiya tahlillari yordamida moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning miqdoriy bahosini berish hamda statistik ahamiyatini tekshirish usullari batafsil yoritilgan [3], [4]. Ushbu yondashuv sanoat korxonalarining moliyaviy holatini nafaqat tavsiflash, balki uni ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi.

Panel ma'lumotlar asosida moliyaviy samaradorlikni baholash masalalari Badi H. Baltagi tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Uning ishlarida hududlar va vaqt kesimidagi ma'lumotlardan birgalikda foydalanish orqali moliyaviy samaradorlikni yanada aniqroq baholash mumkinligi ko'rsatib berilgan bo'lib, bu yondashuv sanoat korxonalarining hududiy farqlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega [5].

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini baholash masalalari statistik va moliyaviy tahlil nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Jumladan, S.S. Gulomov o'z tadqiqotlarida iqtisodiy-statistik usullar yordamida sanoat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularning dinamikasini aniqlash va umumlashtiruvchi baholar berish masalalariga e'tibor qaratgan [16]. Shuningdek, O.Q. Abdullayev ishlarida korxonalarining moliyaviy natijalari, rentabellik ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [17].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida moliyaviy samaradorlik alohida moliyaviy ko'rsatkichlar yoki alohida usullar asosida baholangan. Biroq statistik va ekonometrik yondashuvlarni kompleks qo'llash, shuningdek, baholash metodologiyasini tizimli ravishda takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan [6], [7]. Shu bois mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini statistik tahlil asosida chuqurlashtirish va amaliy jihatdan boyitishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda miqdoriy tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot dizayni statistik va ekonometrik tahlil usullarini uyg'unlashtirishga asoslangan. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy samaradorlikni baholashda kompleks statistik yondashuvlardan foydalanish natijalarning ishonchliligini oshirishi ta'kidlangan [1], [2].

Sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tanlandi: aktivlar rentabelligi (ROA), o'z kapitali rentabelligi (ROE), sof foyda rentabelligi hamda ishlab chiqarish xarajatlari qaytimi. Ushbu ko'rsatkichlar

korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini beradi va moliyaviy tahlil adabiyotlarida keng qo'llaniladi [1], [11], [12].

Moliyaviy samaradorlikni statistik baholash jarayonida vaqt qatorlari tahlili, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, indeks usuli hamda korrelyatsiya tahlilidan foydalanildi. Vaqt qatorlari tahlili moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarining dinamikasini aniqlash imkonini bersa, indeks usuli ko'rsatkichlar o'zgarish sur'atlarini baholashda qo'llanildi. Korrelyatsiya tahlili esa moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi [3], [4], [9].

Moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida regressiya tahliliga asoslangan ekonometrik model tuzildi. Natijaviy ko'rsatkich sifatida aktivlar rentabelligi (ROA) tanlandi. Model quyidagi umumiy ko'rinishda ifodalandi:

$$ROA = \beta_0 + \beta_1 INV + \beta_2 LP + \beta_3 COST + \beta_4 OUT + \varepsilon$$

Mazkur yondashuv klassik regressiya modellariga asoslangan bo'lib, uning metodologik asoslari ekonometrika adabiyotlarida batafsil yoritilgan [3], [5], [7].

Tadqiqotda sanoat korxonalarining rasmiy statistik va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar bir necha yilni qamrab olgan vaqt qatorlari asosida shakllantirildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- (1) moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- (2) statistik ma'lumotlarni yig'ish va dastlabki tahlil qilish;
- (3) statistik baholash;
- (4) ekonometrik modellashtirish;
- (5) natijalarni talqin qilish.

Mazkur ketma-ketlik ilmiy tadqiqot metodologiyasiga to'liq mos keladi [6], [8].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligi makroiqtisodiy va ichki ishlab chiqarish omillari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Statistik tahlil natijalari sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi moliyaviy natijalar dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, sanoat ishlab chiqarish hajmi oshgan davrlarda sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlarida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

Vaqt qatorlari tahlili natijalari moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarining bir tekis rivojlanmaganligini ko'rsatdi. Ayrim yillarda tashqi iqtisodiy omillar va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi natijasida rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish holatlari aniqlangan. Bu holat sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholashda faqat yakuniy natijalarni emas, balki ularni shakllantiruvchi omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy samaradorlikni baholashda tanlangan asosiy ko'rsatkichlar — aktivlar rentabelligi (ROA), o'z kapitali rentabelligi (ROE) va sof foyda rentabelligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil sanoat korxonalarining moliyaviy holatida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. ROA ko'rsatkichining o'zgarishi korxonalarining aktivlardan foydalanish samaradorligi darajasini aks ettirib, ayrim davrlarda past darajada shakllangan.

ROE ko'rsatkichining tahlili esa moliyaviy leverajdan foydalanish darajasi moliyaviy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Kapital tuzilmasi optimal shakllangan

korxonalarda ROE darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Ushbu natijalar moliyaviy boshqaruv qarorlarining samaradorlikka ta'siri haqidagi ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi.

Hududiy tahlil natijalari sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini aniqladi. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganligi va investitsiyalar hajmining yuqoriligi moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori bo'lishiga olib kelgan. Aksincha, investitsion faolligi past hududlarda rentabellik ko'rsatkichlari past darajada shakllangan.

Mazkur holat panel ma'lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham qayd etilgan bo'lib, hududiy omillarni hisobga olish moliyaviy samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Korrelyatsiya tahlili natijalari moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan investitsiyalar hajmi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqladi. Ishlab chiqarish xarajatlari bilan moliyaviy samaradorlik o'rtasida esa teskari bog'liqlik kuzatildi.

Ushbu natijalar iqtisodiy nazariya va avvalgi tadqiqotlarda bildirilgan xulosalar bilan mos keladi hamda sanoat korxonalarida xarajatlarni optimallashtirish moliyaviy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Ekonometrik model natijalari tanlangan omillarning moliyaviy samaradorlikka statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligi koeffitsiyentlari musbat va statistik ahamiyatli bo'lib, ularning oshishi ROA darajasining o'sishiga olib kelishi aniqlandi. Ishlab chiqarish xarajatlari esa moliyaviy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi.

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti moliyaviy samaradorlikdagi o'zgarishlarning katta qismi tanlangan omillar bilan izohlanishini ko'rsatdi. Bu esa ishlab chiqilgan ekonometrik modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi va sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholashda undan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Olingan natijalar sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlik ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Statistik va ekonometrik tahlil natijalari moliyaviy samaradorlikni baholashda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlab, baholash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholashda statistik va ekonometrik yondashuvlarni kompleks qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Olingan empirik natijalar moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar faolligi va mehnat unumdorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Bu holat moliyaviy samaradorlikni korxona faoliyatining faqat yakuniy natijasi emas, balki resurslardan foydalanish darajasini aks ettiruvchi tizimli ko'rsatkich sifatida qarash zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari moliyaviy samaradorlikni baholashda rentabellik ko'rsatkichlarining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan avvalgi tadqiqotlar xulosalariga mos keladi. Xususan, aktivlar rentabelligi va o'z kapitali rentabelligi sanoat korxonalarining moliyaviy holatini tavsiflashda asosiy indikatorlar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda statistik va ekonometrik tahlil natijalari mazkur

ko'rsatkichlarning o'zgarishi tasodifiy emas, balki aniq iqtisodiy omillar ta'siri ostida shakllanishini ko'rsatdi.

Ekonometrik tahlil natijalari investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligining moliyaviy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ushbu natijalar investitsiyalarni rag'batlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish moliyaviy natijalarni yaxshilashning muhim sharti ekanligini asoslab bergan ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining salbiy ta'siri esa xarajatlarni optimallashtirish masalasi sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishi ekanligini ko'rsatadi.

Hududlar kesimidagi tahlil natijalari moliyaviy samaradorlikda sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini aniqladi. Bu holat hududiy rivojlanish darajasi, infratuzilma holati va investitsiya muhiti moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Panel ma'lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham hududiy omillarni hisobga olish moliyaviy samaradorlikni baholashda muhim ekani qayd etilgan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari moliyaviy samaradorlikni baholashda faqat alohida ko'rsatkichlarga tayangan holda xulosa chiqarish yetarli emasligini, balki statistik va ekonometrik usullarni uyg'unlashtirgan kompleks metodologiyadan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv moliyaviy samaradorlikni yanada chuqur va ishonchli baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini statistik va ekonometrik tahlil asosida takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, o'tkazilgan empirik tahlillar asosida muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari moliyaviy samaradorlik sanoat korxonalari faoliyatining ko'p omilli va tizimli jarayoni ekanligini, uning shakllanishida nafaqat moliyaviy natijalar, balki investitsiyalar faolligi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish xarajatlari va hududiy omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Birinchidan, moliyaviy samaradorlikni baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), o'z kapitali rentabelligi (ROE) va sof foyda rentabelligi sanoat korxonalarining moliyaviy holatini ishonchli tavsiflovchi asosiy indikatorlar ekanligi tasdiqlandi. Statistik tahlil natijalari ushbu ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha barqaror emasligini, ularning o'zgarishi iqtisodiy sharoitlar va boshqaruv qarorlariga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, ekonometrik tahlil natijalari investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligining moliyaviy samaradorlikka ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi moliyaviy samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi tasdiqlandi. Bu holat sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasining dolzarbligini yana bir bor ko'rsatadi.

Uchinchidan, hududlar kesimida o'tkazilgan tahlil sanoat korxonalarining moliyaviy samaradorligida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini aniqladi. Ushbu tafovutlar sanoat infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsiya muhiti va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan izohlanadi. Bu esa moliyaviy samaradorlikni baholashda hududiy omillarni alohida hisobga olish zarurligini asoslaydi.

To'rtinchidan, tadqiqot doirasida taklif etilgan statistik va ekonometrik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan metodologiya moliyaviy samaradorlikni baholashda mavjud yondashuvlarga nisbatan kengroq va ishonchli natijalar berishi aniqlandi. Ushbu metodologiya moliyaviy samaradorlikni nafaqat retrospektiv tahlil qilish, balki kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholashning yagona statistik metodologiyasini joriy etish. Ushbu metodologiya moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi, statistik va ekonometrik baholash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

2. Moliyaviy samaradorlikni monitoring qilish tizimini yaratish, bunda rentabellik, investitsiya samaradorligi va xarajatlar qaytimi bo'yicha asosiy indikatorlar muntazam baholanib borilishi zarur.

3. Investitsiya faolligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish, jumladan, yuqori samaradorlikka ega sanoat korxonalarini moliyaviy va soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish.

4. Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, xususan, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

5. Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish, jumladan, kadrlar malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarishni raqamlashtirish.

6. Hududiy sanoat siyosatini differensiallashtirish, moliyaviy samaradorligi past hududlarda sanoat infratuzilmasini rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish.

7. Ekonometrik modellarni boshqaruv qarorlarida qo'llash, ya'ni moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar asosida prognozlar tuzish va strategik rejalashtirish jarayoniga joriy etish.

8. Statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish va ochiqqligini oshirish, bu moliyaviy samaradorlikni yanada chuqur va ishonchli baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni baholash metodologiyasini takomillashtirish, ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management. Cengage Learning, 2019.
2. Damodaran A. Applied Corporate Finance. Wiley, 2015.
3. Gujarati D.N. Basic Econometrics. McGraw-Hill, 2009.
4. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. Cengage Learning, 2020.
5. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. Wiley, 2013.

6. Kothari C.R. Research Methodology: Methods and Techniques. New Age International, 2014.
7. Greene W.H. Econometric Analysis. Pearson, 2018.
8. Maddala G.S. Introduction to Econometrics. Wiley, 2001.
9. Hair J.F. et al. Multivariate Data Analysis. Pearson, 2019.
10. Field A. Discovering Statistics Using SPSS. Sage, 2018.
11. Ross S.A., Westerfield R., Jordan B. Corporate Finance. McGraw-Hill, 2016.
12. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill, 2020.
13. IMF. Financial Soundness Indicators. Washington DC, 2022.
14. World Bank. Industrial Performance Analysis. Washington DC, 2021.
15. OECD. Measuring Productivity. Paris, 2020.
16. G'ulomov S.S. Iqtisodiy statistika. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
17. Abdullayev O.Q. Korxona moliyasi va moliyaviy tahlil. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
18. Karimov I.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va sanoat rivoji. Toshkent, 2018.
19. UNIDO. Industrial Development Report. Vienna, 2022.
20. Porter M.E. Competitive Advantage. Free Press, 2008.
21. Stiglitz J.E. The Price of Inequality. Norton, 2013.
22. Schumpeter J.A. Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1983.